

YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH

Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2019-yilning yanvar–sentabrida O`zbekiston Respublikasi YaIM hajmi joriy narxlarda 361 858,4 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar–sentabri bilan taqqoslaganda 5,7 % ga o`sdi. YaIM deflyatori indeksi 2018-yilning yanvar–sentabridagi narxlarga nisbatan 118,0 foizni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga hisoblangan YaIM 10 805,0 ming so`mni tashkil etdi va bu ko`rsatkich o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga yuqoridir.

Yanvar–sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha YaIMni ishlab chiqarish quyidagi ma`lumotlar bilan ifodalanadi:


	Mlrd. so`m		Fizik hajm indeksi, %	YaIM o`shidagi hissasi, %
	2018-yil	2019-yil		
YaIM – jami	290 161,9	361 858,4	105,7	5,7
<i>shu jumladan:</i>				
Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	256 716,4	329 091,0	105,7	5,0
qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi	80 331,3	92 186,7	102,4	0,6
sanoat	65 351,2	96 227,9	107,0	1,6
qurilish	16 677,7	22 561,0	119,3	1,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	19 496,9	23 094,3	104,1	0,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	22 185,4	25 834,5	105,7	0,4
boshqa xizmat tarmoqlari	52 673,9	69 186,6	105,3	1,0
Mahsulotlarga sof soliqlar	33 445,5	32 767,4	105,6	0,7

Yanvar–sentabr oylarida YalMning tarmoqlar bo`yicha tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

2018-yil




2019-yil



O`tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda YaIM (YaQQ) tarmoqlari tarkibida qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining ulushi 31,3 % dan 28,0 % ga hamda xizmatlar sohasi ulushi 36,8 % dan 35,9 % ga kamaygan bir vaqtda, sanoatning ulushi 25,4 % dan 29,2 % ga, qurilishning ulushi 6,5 % dan 6,9 % ga o`sdi.

2019-yil yanvar–sentabr oylaridagi iqtisodiy o`sinh sur`ati iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy dinamika bilan bog`liqdir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat hajmi YaIM umumiy hajmining 90,9 % ini tashkil etdi va 5,7 % ga o`sdi (YaIM mutloq o`shishiga ta`siri 5,0 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 9,1 % ni tashkil etdi va 5,6 % darajasida o`sinh qayd etildi (YaIM mutloq o`shishiga ta`siri 0,7 f.p.).

**2019-yilning yanvar–sentabr oylarida
YaIMning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha o`sinh sur`atlari**
(2018-yilning yanvar–sentabriga nisbatan % da)




2019-yilning yanvar–sentabr oylari yakunlariga ko`ra, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida 2,4 % darajasida ijobiy o`shish qayd etildi. Mazkur tarmoqning YalM mutloq o`shish sur`atiga ta`siri 0,6 f.p. ni tashkil etdi. Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida ijobiy o`shish dehqonchilikda 2,4 % ga va chorvachilikda 2,5 % ga o`shish hisobiga ta`minlandi.

Sanoat tarmog`ining qo`shilgan qiymatida 7,0 % ga o`shish qayd etildi. Sanoat ishlab chiqarishining YalM mutloq o`shish sur`atiga ijobiy ta`siri 1,6 f.p. ni tashkil qildi. Sanoat tarmog`idagi ijobiy dinamika tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog`i qo`shilgan qiymatining 1,9 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat tarmog`i qo`shilgan qiymatining 8,9 % ga va boshqa sanoat tarmoqlarining 1,6 % ga o`shishi hisobiga ta`minlandi.

**Yanvar–sentabr oylarida
sanoat tarmog`ining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi**

	<i>Mrd. so`m</i>		<i>Fizik hajm indeksi, %</i>
	<i>2018-yil</i>	<i>2019-yil</i>	
Sanoat	65 351,2	96 227,9	107,0
<i>shu jumladan:</i>			
tog` - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	14 692,9	21 369,9	101,9
ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat	46 503,6	68 071,0	108,9
sanoatning boshqa tarmoqlari	4 154,7	6 787,0	101,6

**Yanvar–sentabr oylarida
sanoat tarmog`ining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)



2019-yilning yanvar–sentabri yakunlari bo`yicha, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati qo`shilgan qiymati tarkibida eng katta ulush metallurgiya va metallni qayta ishlash sanoatiga (mashina va uskunalardan tashqari) to`g`ri keldi va 34,8 % ni tashkil etdi. Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 14,8 %, to`qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish – 13,8 %, rezina, plastmassa buyumlar va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 10,5 %, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – 7,8 %, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar hamda boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish – 5,7 %, elektr uskunalar ishlab chiqarish – 2,5 %, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – 2,3 % hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining boshqa mahsulotlarini ishlab chiqarish – 7,8 % ni tashkil qildi.


**Yanvar–sentabr oylarida ishlab chiqaradigan
(qayta ishlash) sanoat yalpi qo`shilgan qiymatining tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)

	<i>2018-yil</i>	<i>2019-yil</i>
Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - jami	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	15,9	14,8
To`qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	15,2	13,8
Yog`och va qog`oz mahsulotlarini ishlab chiqarish; yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	2,5	2,0
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	1,8	2,3
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	9,2	7,8
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	1,2	1,1
Rezina va plastmassa buyumlar va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	12,4	10,5
Metallurgiya va metallni qayta ishlash sanoati (mashina va uskunalardan tashqari)	27,8	34,8
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	0,7	0,6
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	2,5	2,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	2,1	1,4
Avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish	5,7	5,7
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish; mashina va uskunalarini ta`mirlash hamda o`rnatish	3,0	2,7

Turar joy majmualarini, ijtimoiy soha va muhandislik infratuzilma ob`yektlarini qurish va kapital rekonstruktsiya qilish, shuningdek, sanoatning bazaviy tarmoqlari korxonalarini qurish va modernizatsiya qilish bo`yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish borasida olib borilayotgan keng ko`lamli ishlar natijasida qurilish ishlari hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 19,3 foizga o`sdi. Qurilish tarmog`ining YaIM o`shidagi ijobiy hissasi 1,1 f.p.ni tashkil qilgan.

2019-yil yanvar–sentabr oylarida xizmat ko`rsatish sohasining yalpi qo`shilgan qiymati hajmi 118 115,4 mlrd. so`mni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga o`sdi (YaIM o`shidagi hissasi 1,7 f.p. ni tashkil etdi). Shundan, savdo xizmatlari (avtotransport vositalarini ta`mirlashni qo`shgan holda) 3,9 % ga, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar 6,1% ga, tashish va saqlash 5,0 % ga, axborot va aloqa xizmatlari 8,2 % ga va xizmatlar sohasining boshqa tarmoqlari 5,3 % ga o`sdi.

**Yanvar–sentabr oylarida savdo tarmog`ining (avtotransport vositalarini ta`mirlashni qo`shgan holda) qo`shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**




- Avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi (ularni ta`mirlashni qo`shgan holda)
- Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)
- Chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)

Savdo (avtotransport vositalarini ta`mirlashni qo`shgan holda) tarmog`ining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibida eng katta ulush chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari) ga to`g`ri keldi va 68,0 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari) ning ulushi 25,9 % ni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta`mirlash 6,1 % ni tashkil qildi.


2019-yilning yanvar–sentabr oylarida tashish va saqlash tarmog`ining qo`shilgan qiymati tarkibida eng ko`p ulush avtomobil transportiga to`g`ri keldi va 53,9 % ni tashkil etdi. Mazkur tarmoq umumiy qo`shilgan qiymatida quvur transportining ulushi 18,0 %, temir yo`l transportining ulushi 11,3 %, yordamchi transport faoliyatining ulushi 10,1 % va havo transportining ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.

**Yanvar - sentabr oylarida tashish va saqlash
tarmog`ining qo`shilgan qiymati tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)

2018-yil




2019-yil



 Avtomobil transporti xizmatlari
 Quvur transporti xizmatlari


 Temir yo`l transporti xizmatlari
 Havo transporti xizmatlari
 Yordamchi transport faoliyati

2019-yilning yanvar–sentabr oylarida
YalM o`shida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)



2019-yil yanvar–sentabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub`yektlari tomonidan 188 182,7 mlrd. so`m miqdoridagi qo`shilgan qiymat yoki iqtisodiyotda yaratilgan jami qo`shilgan qiymatning 57,2 foizi yaratildi. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo`yicha yalpi qo`shilgan qiymatda kichik tadbirkorlik (biznes) ning ulushi qishloq, o`rmon va baliqchilikda 99,1 foiz, qurilishda 77,9 foiz, xizmat ko`rsatish sohasida 40,9 foiz va sanoatda 32,2 foizni tashkil etdi.


**2019-yilning yanvar–sentabr oylarida YaIM iqtisodiy faoliyat turlari
bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)ning ulushi**
(YQQga nisbatan % da)



2019-yilning yanvar–sentabr oylarida YaIM deflyatori indeksi 2018-yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 118,0 % ni tashkil etdi. YaIM deflyatori indeksining yuqori ko`rsatkichlari sanoat tarmog`ida (137,6 %) va boshqa xizmat tarmoqlarida (124,7 %) qayd etildi.

Respublikaning o`rtacha darajasidan past bo`lgan deflyator indeksleri qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida (112,1 %), qurilishda (113,4 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarda (113,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqada (110,1 %) va mahsulotlarga sof soliqlarda (92,8 %) kuzatildi.

2019-yilning yanvar–sentabr oylarida
YalMning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha deflyator indeksi
(2018-yilning yanvar–sentabriga nisbatan % da)



Makroiqtisodiy indikatorlar
va milliy hisoblar boshqarmasi
Tel.: 71 230-80-28
71 230-80-30